# SAMARQAND VILOYATI PAXTACHI TUMANI HOKIMINING
# QARORI

2022 - yil 15 - dekabr 536-7-102-Q/22 Paxtachi tumani hokimligi

## Tumanda 2023-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (keyingi o‘rinlarda – Nizom) muvofiq transport vositalarining 2023-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida

**Q A R O R Q I L A M A N:**

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2023-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari — bir yilda ikki marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — ikki yilda bir marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari), shuningdek, ishlab chiqarilganiga o‘n besh yil va undan ortiq bo‘lgan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — bir yilda bir marta; — bir yilda bir marta;

tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’i nazar, ularni Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati (keyingi o‘rinlarda - DYHXX) organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

4. Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta – 1-mart- 30-iyunda;

ikkinchi marta – 1-sentabr- 31-oktabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1-yanvar – 31-dekabrda o‘tkaziladi.

5. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tuman komissiyasi rahbariga transport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tkazishda:

transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma’lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport vositasining rang-grafik bo‘yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yonilg‘isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o‘tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta’minlasin.

6. Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik subyektlari – yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o‘tkaziladi hamda tegishli yig‘im undiriladi.

- transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

- jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik subyektlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

7. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o‘z vaqtida texnik ko‘rikdan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-son “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori 3-bandiga ko‘ra O’zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo‘linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi inobatga olinsin.

9. Tuman hokimining 2021-yil 30-dekabrdagi 153-7-102-Q/21-son “Tumanda 2022-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

11. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari SH.Musirmanov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi** **M.Xamdamov**

Paxtachi tuman hokimining
2022 yil 15 dekabrdagi
536-7-102-Q/22-son qaroriga
1-ilova

**Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan**

**o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi**

**T A R K I B I**

**Komissiya raisi :**

| | | |
|---|---|---|
| M.Xujayorov | | Tuman IIB yo‘l harakati xavsizligi guruhi, avtomototransport vositalarining texnik holati va ulardan foydalanishni nazorat etish guruhi katta inspektori, komissiya raisi |

**Komissiya a’zolari:**

| | | |
|---|---|---|
| A.Nasullayev | - | tuman Mudofaa ishlari bo‘limi Rezervchilar va harbiy majburlarni hisobga olish bo‘linmasi boshlig‘i yordamchisi, Qurolli kuchlar xizmatchisi |
| X.Maxsiddinov | - | tuman Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish inspeksiyasi boshlig‘i |
| Z.Safarov | - | “Kafolat sug‘urta” kompaniyasi tuman markazi boshlig‘i |
| A.Abduraxmonov | - | tuman “Vatanparvar” kengashiga qarashli O‘quv sport texnika klubi boshlig‘i |

**Komissiya kotibi:**

| | | |
|---|---|---|
| M.Quldoshev | - | tuman Ichki ishlar bo‘limi YHXG MA inspektori |

Paxtachi tuman hokimining
2022 yil 15 dekabrdagi
536-7-102-Q/22-son qaroriga
2-ilova

**Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2023-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish**

**J A D V A L I**

| № | Tashkilot, korxona, xo‘jalik va muassasalar nomi | Texnik ko‘rik o‘tkazish kunlari | Texnik ko‘rik o‘tkazish vaqti | Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan joy | Transport-lar soni |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | O‘simliklarni himoya qilish otryadi | Dushanba - juma | 03.04.2023 y. | YHXG | 2 |
| 2 | “Maroqand neftbaza” Unitar korxonasi | Dushanba - juma | 03.04.2023 y. | YHXG | 2 |
| 3 | Tuman SEO va JS markazi | Dushanba - juma | 03.04.2023 y. | Avtosaroy | 7 |
| 4 | “Ziyovuddin-Temiryo‘l-Masofasi” (PCh-11) | Dushanba - juma | 03.04.2023 y. | Avtosaroy | 13 |
| 5 | Qarnabota MCHJ (shirkat xo‘jaligi) | Dushanba - juma | 03.04.2023 y. | Avtosaroy | 7 |
| 6 | Tuman hokimligi moliya bo‘limi | Dushanba - juma | 03.04.2023 y. | YHXG | 1 |
| 7 | Tuman hokimligi | Dushanba - juma | 03.04.2023 y. | Avtosaroy | 8 |
| 8 | “Vatanparvar” USTK | Dushanba - juma | 10.04.2023 y. | Avtosaroy | 14 |
| 9 | Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi | Dushanba - juma | 10.04.2023 y. | Avtosaroy | 7 |
| 10 | «Paxtachi» gazetasi tahririyati | Dushanba - juma | 10.04.2023 y. | YHXG | 1 |
| 11 | Tuman Pochta aloqa tarmog‘i | Dushanba - juma | 10.04.2023 y. | YHXG | 2 |
| 12 | Tuman tibbiyot birlashmasi | Dushanba - juma | 10.04.2023 y. | YHXG | 2 |
| 13 | Tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi | Dushanba - juma | 10.04.2023 y. | Avtosaroy | 7 |
| 14 | Paxtachi veterinariya bo‘limi | Dushanba - juma | 10.04.2023 y. | YHXG | 1 |
| 15 | “Xalq banki” tuman bo‘limi | Dushanba - juma | 17.04.2023 y. | YHXG | 1 |
| 16 | «Mikrokreditbank» ATB Ziyovuddin filiali | Dushanba - juma | 17.04.2023 y. | YHXG | 1 |
| 17 | “Agrobank” ATB Paxtachi filiali | Dushanba - juma | 17.04.2023 y. | YHXG | 1 |
| 18 | Tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markazi | Dushanba - juma | 17.04.2023 y. | YHXG | 1 |
| 19 | Tuman Mudofaa ishlari bo‘limi | Dushanba - juma | 17.04.2023 y. | YHXG | 1 |
| 20 | Tuman Xalq ta’limi bo‘limi | Dushanba - juma | 17.04.2023 y. | YHXG | 1 |
| 21 | Tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limi | Dushanba - juma | 17.04.2023 y. | YHXG | 2 |

| № | Tashkilot, korxona, xo‘jalik va muassasalar nomi | Texnik ko‘rik o‘tkazish kunlari | Texnik ko‘rik o‘tkazish vaqti | Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan joy | Transport-lar soni |
|---|---|---|---|---|---|
| 22 | Mansurbek qo‘rg‘on biznes MCHJ | Dushanba - juma | 24.04.2023 y. | YHXG | 6 |
| 23 | Davlat kadastrlari Palatasi tuman filiali | Dushanba - juma | 24.04.2023 y. | YHXG | 1 |
| 24 | Paxtachi Davlat o‘rmon xo‘jaligi | Dushanba - juma | 24.04.2023 y. | YHXG | 2 |
| 25 | Tuman Irrigasiya bo‘limi | Dushanba - juma | 24.04.2023 y. | YHXG | 1 |
| 26 | Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi | Dushanba - juma | 24.04.2023 y. | YHXG | 1 |
| 27 | Markazgazta’minot Paxtachi filiali | Dushanba - juma | 24.04.2023 y. | YHXG | |
| 28 | “Maroqand neft baza” MCHJ | Dushanba - juma | 24.04.2023 y. | YHXG | 1 |
| 29 | Boshqa yuridik shaxslar | Dushanba - juma | 01.03.2023 - 30.06.2023 y. | YHXG | |
| 30 | Tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari | Dushanba - juma | Birinchi marta 01.03.2023 -30.06.2023 y.<br><br>Ikkinchi marta 04.09.2023 31.10.2023 y. | YHXG | |
| 31 | Barcha jismoniy shaxslar | Dushanba - juma | 01.01.2023-31.12.2023 y. | YHXG | |